

Mavzu: Matn haqida umumiy tushuncha

Aa Yaxshilik qilsang, yashir,
Yaxshilik kōrsang, oshir.

- Maqolning ma'nosini izohlang.



1-mashq. Gaplarni o'z o'rnida qo'llab, matn tuzing.
Matnga sarlavha qo'yib, husnixat bilan ko'chiring.

- Bolalar Zafarga meva va shirinliklar olib kelishdi.
- Do'stlari uni ko'rgani kelishdi.
- Zafar, Sardor va Komil – ahil do'stlar.
- Uyda bir o'zi zerikib o'tirgandi.
- U juda xursand bo'ldi.
- Bir kuni Zafar kasal bo'lib qoldi.



Matn – mazmunan va grammatik jihatdan o'zaro bog'langan ikki yoki undan ortiq gaplar yig'indisi.





2-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Biz yashab turgan Yer sayyorasi **koinot**dagi eng mo'jizaviy sayyoradir. Agar biz uni koinotdan kuzatsak, u moviy rangli marvaridga o'xshaydi. Buning sababi juda oddiy: Yer yuzining katta qismi suvlar – **okeanlar** va dengizlar bilan qoplangan. Yer – barcha insonlar, hayvonlar va o'simliklar yashaydigan yagona va juda **go'zal sayyora**!



Yer hech qachon to'xtab turmaydi, u Quyosh atrofida tinmay aylanadi. Buning natijasida bizda **bahor**, **yoz**, **kuz** va **qish** fasllari ketma-ket davom etadi.

Yerni himoya qilish – bizning burchimiz!

- Atrof-muhitni asrash haqidagi o'z fikringizni bayon qiling.




Matnga qo'yilgan talablar:

- matn ikki yoki undan ortiq gapdan **tuziladi**;
- gaplar mazmunan o'zaro **bog'liq** bo'ladi;
- matn mazmunan **tugallangan** bo'ladi;
- matnga **sarlavha qo'yish** mumkin.






3-mashq. O'qing. Quyidagilardan qaysi biri matn ekanligini aniqlang. Matnga sarlavha qo'yib, ko'chiring.



Bugun Zarina navbatchi edi. U sinfga hammadan oldin kirib keldi. Derazalarni ochdi, gullarga suv quydi va doskani artdi. Qo'ng'iroq chalinganda qizaloq hamma ishlarini tugatib bo'lgan edi.



Komil shaxmat o'ynashni bolaligidan juda yaxshi ko'radi. Qo'ziqorinlar o'rmonda o'sadi. Erta tongdan Quyosh charaqlab ko'rindi. Maktabdan qo'ng'iroq ovozi eshitildi.



4-mashq. Gaplarni mazmunan o'z o'rniga qo'yib, matn tuzing. Unga sarlavha toping. Tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib, ko'chiring.

- Chumchuq¹ pastga tushib, donlarni terib yedi.
- U yerda o'tiri..., atrofni diqqat bilan kuzata boshladi.
- To'satdan u yerda yot...an donlarni ko'rib qoldi.
- Bir kuni kichkina chumch...q bog'dagi dara...tga qo'ndi.
- So'ngra u "chirq-chirq" deb sayrab, osmonga uchib ketdi.

